

**JOMIY “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONINING O‘ZIGA  
XOS JIHATLARI**

*O‘zbekiston xalqaro islom  
akademiyasi Matnshunoslik  
va adabiy manbashunoslik  
1-kurs magistranti  
Xasanova Nilufar Mansurovna*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada Abdurrahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonining o‘zbek tilidagi(Olimjon Bo‘riyev) tarjimasining she‘riy parchalaridagi badiiy san’atlar va ma’nolar tahlili, ishq masalasidagi qarashlar haqida ma’lumotlar berish orqali adabiyot,tarbiya,din va ilm,fan bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, shaxs kamolotining ildiz tomirlari bo‘lmish bu elementlarning mujassamini o‘zida aks ettirgan mumtoz asarlarni o‘rganish va o‘rgatish muhim masala ekani muxtasar yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** Abdurrahman Jomiy, “Yusuf va Zulayho” dostoni, Qur’on oyatlari, badiiy va ma’noviy san’atlar, ilohiy ishq, tasavvuf, iqtibos, mumtoz asarlar.

Mo‘minlarning bosh kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimda kelgan “Yusuf” surasidagi qissa asosida ko‘plab shoirlar go‘zal asarlar bitishgan. Yusuf a.s. hikoyasi Qur’on nozil bo‘lgungacha ham boshqa ilohiy kitoblarda, xususan, Tavrot va Injilda ham bayon etilgan. Ammo, ushbu mavzu musulmonlar kitobidagi o‘zgacha talqini asosida har bir nozik ta’bli, o’tkir zehnli shaxsning nazariga tushib, “Yusuf”navislik an’anasi yuzaga keldi. Bu an’ana qachon va kim tomonidan boshlab berilgani haqida turli ixtiloflar mavjud. Bugungi tadqiqotchilarining fikrlariga ko‘ra dunyo bo‘ylab Yusuf va Zulayho ishqiy-sarguzashtlariga atab bitilgan asarlar soni 140dan oshiq. Va bu asarlarning barchasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ayniqsa, Abdurrahmon Jomiy yozib qoldirgan “Yusuf va Zulayho” dostoni asarlar ichida alohida o‘rin egallaydi. Forsiy tilida nazm qilingan ushbu dostonni tahlil qilishda tushunarli bo‘lishi uchun Olimjon Bo‘riyevning tarjimasini ob’ekt sifatida tanlab oldik. Ushbu tarjima forsiy matnga juda yaqin, o‘z jozibasini yo‘qotmay, aksincha, badiiy san’atlardan juda o‘rinli foydalanilganligi bilan har qanday o‘quvchining e’tiborini tortadi. Doston Yaratganga iltijo bilan boshlanadi:

Ilohiy, g‘unchayi umiddan och yuz,

Abadiy bog‘idin bir gulni ko‘rguz.

Ochib ul g‘unchani ko‘nglimni shod et,

U gulning atri birla hushdumog‘ et.[A.Jomiy ; 3b]

Muallif Yaratgandan o‘ziga ilohiy ilhom,ilm so‘rarkan, uni gulg‘unchaga o‘xshatadi. Dostonning ilk misralaridanoq tashbeh san’atining go‘zal namunasini ko‘rishimiz mumkin.

Nodonlar bazmida o‘zni unutgay,

U maydan ilgida kim jom tutgay.

Kel, ey Jomiy, xijolat bo‘lma zinhor,

Olib kel, sofmi quyqa, har neki bor.[A.Jomiy ; 3b] Jomiy ushbu dostonida ishqning barcha ko‘rinishlari haqida kuylamoqchiligi haqida yozadi. Bilamizki, Jomiy ham Navoiy kabi tasavvufiy ishq kuychisi. Tasavvufda ishq 3turga bo‘linadi:

1. Majoziy ishq (Bashariy ishq)

2. Ruhiy – ma’naviy ishq

3. Ilohiy ishq (Ruhoniy ishq)

Yana ba'zi manbalarda uni 2turga bo'lishadi:

-Xoslar ishqisi

-Avom ishqisi. Ya'ni bu – insonning insonga muhabbatidan tashqari, Ollohunga bo'lgan muhabbat(qullik,bandalik hissi) kabilarni anglatadi.

“Oshiqlik kamoloti haqida so'z bitmoq...” sarlavhasi orqali shoir yozilajak dostonining ishqiy doston bo'lgani sababli nazmda bitmoq nur ustiga a'lo nur bo'lishini uqtirib:

“Muhabbat dardisiz dil, dil emasdir,

G‘am-u savdosi yo‘q ko‘ngil emasdir.

Kishining qalbida ishq bo‘lmasin kam,

Beishq dil bo‘lmasin olamda hech ham!” [A.Jomiy ; 5b] - deya har bir ko‘ngilda ishq-muhabbatning yashamog‘i – insonning yashashdan ma’no borligiga dalolat qilishini yozadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, shoir nazarda tutayotgan ishq hozirgi kunda tushuniladigan sevgi-muhabbat masalasigina emas, **ishq** – juda keng tushuncha bo‘lib, insonni yuksaklikka, ilmga, bilishga, intilishga undovchi **ilohiy kuchdir**. Keyingi o‘rinlarda:

Enam, olamga kelsam men yig‘idin,

Kesibdir kindigimni ishq tig‘idin.

Onam shun lablarimga qo‘ydi siyna,

Emizgan shog‘i ishqdan kirdi kiyna

misralari orqali onaning bolaga bo'lgan muhabbatini juda go'zal tarzda ifodalaydi.

Agarchi sochlarmi sut yanglig‘ oqdir,

Hamon ko‘nglim u sut zavqi-la chog‘dir .[A.Jomiy ; 4b]

misralarda esa bolaning onaga bo‘lgan ishqi – mehr,muhabbatini oq sut orqali kinna kirganidek, bolaganing qon-qoniga singib, umrining oxirigacha ham uni tark etmasligini aytadi.

Beray ishq otashidan so‘zga pardoz,

Zakovat ahli oni qilsa e’zoz.

Ko‘tarsam bu falakda oh-u afg‘on,

Samo yulduzlari ko‘zdin to‘kar qon.

- ishq,otash, samo-falak,yulduz, oh,afg‘on,qon kabi ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlarni qo‘llash tanosib san’atidan foydalangan. Qolaversa, yulduzlarning ko‘zdan yosh-qon to‘kishi ham tashbeh san’atining namunasidir.

“Yoz oshiqlar haqida bir fasona,

Bu olamda qolur sendan nishona.

Qalam tort, mo‘jizot naqshini solsin,

Ki sen ketsang, sening joyingda qolsin.” [A.Jomiy ; 5b]

- deya yozarkan, Jomiy o‘z dostonining mashhur bo‘lib, asrlar davomi yashab keluvchi o‘lmas yodgorlik bo‘lib qolishini bashorat qilgandek go‘yo.

“Tafakkur bo‘stonidan so‘z gullarini uzmoq va undan komilan she’riy guldasta tuzmoq” bobida sarlavhaning o‘ziyoq tashbehdan ustalik bilan foydalilanigan. Inson tafakkurini turli nav gullar o‘sib,ochilib yotuvchi bo‘stonga o‘xshatar ekan, undan sara gullarni- so‘zlarni uzib, ajoyib guldasta tuzmoqchi bo‘lgan shoirning mahoratini, ilohiy iste’dodini ko‘rsatib turibdi. Shu o‘rinda, Navoiy ham Jomiy izidan borib, so‘z ta’rifiga alohida to‘xtalar ekan, tafakkurni- ummonga, fikrni,so‘zni esa ummon ostidagi dur-u javohirlarga o‘shatgan. Gavvos qanchalik ustalik bilan tubga sho‘ng‘isa, shu qadar noyob ajoyibotlarni qo‘lga kiritadi.

Muhabbat daftarin ochg‘uvchi so‘zdir,

Guliston atrini sochg‘uvchi so‘zdir.

Zako ahliga so‘zdin xorlik o‘lmas,

Jahonda so‘z kabi yodgorlik o‘lmas.

Qalamga so‘z dedikim “qofu nun” yoz,

Ki borliq bo‘ldiki bu so‘z birla og‘oz.

Qalamning qofi ul qofdan yaraldi,

Saxo favvorasidan nur taraldi.[A.Jomiy ; 5,6 b]

Shoir arab harflarini she’riy misralarda keltirish orqali **kitobat** san’atini qo‘llagan. Shu o‘rinda yana **iqtibos** san’atidan foydalaniłgan.

Arab balog‘atida Qur’on va hadisdan bir oz o‘zgarish bilan kiritilgan matnlar iqtibos sanaladi. Iqtibosning ta’rifi:

الإقتباس تضمين النثر أو الشعر شيئاً من القرآن الكريم أو الحديث الشريف من غير دلالة على أنه منها، ويجوز أن يُغيّر في الآخر المقتبس قليلاً.

Ya’ni: Iqtibos nasr yoki she’rda Qur’oni Karim yoki hadisi sharifdan biror narsaning qaerdan olingani ko‘rsatilmagan holda keltirilishidir. U bir oz o‘zgartirilgan bo‘lishi mumkin.[13:141] Uning ma’no jihatdan 2turi mavjud bo‘lib,

- 1) oyat yoki hadisdagi asl ma’no saqlanadi;
- 2) ma’no muallif bildirmoqchi bo‘lgan xabar ma’nosiga ko‘chadi.

Misrada kelgan “qofu nun” yoki “kofu nun” dan murod Qur’oni Karim oyatlarda kelgan گُن فَيَكُونُ ga ishora bo‘lib, ushbu oyat ma’no ko‘chirish orqali iqtibos qilingan:

بَدِيعُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ وَإِذَا قَضَى أَمْرًا فَإِنَّمَا يَقُولُ لَهُ كُنْ فَيَكُونُ {١١٧}

Tarjimasi: “(U) yero osmonlarning Yaratuvchisidir. Biror ishni qiladigan bo‘lsa, (faqatina unga) “Bo‘l!” desa, bas, u bo‘ladi.(Baqara surasi 117-oyat)[17:18]

Ya’ni, shoirning dostoni ham Ollohning amri ila yaratilayotganini, bas, u iroda etsagina qalami yoza olishiga ishora qilingan. Bundan tashqari, “Qalamning qofi ul qofdan yaraldi” deyishida Qur’onda kelgan

نَ وَالْكَلْمُ وَمَا يَسْطُرُونَ ۚ ۱

Tarjimasi: “Nun. Qalam va u bilan yozadigan narsalar bitiklar bilan qasamyoq etamanki”(Qalam surasi,1-oyat) oyatiga iqtibos bor.

Shoir dostonni ustalik bilan nazmiy ipga teradi. Dostonning aslida shunday bitilgan:

Chu to‘tiy ta’bro sozam shakarxo,

Zi husni Yusufu ishqqi Zulayho

Xudo az qissaho chun ahsanash xond,

Ba ahsan vajh az-on xoham suhan rond.

Tarjimasi:

To‘ti yanglig‘ tab’im etsin huvaydo,

Yusuf zebo, Zulayho unga shaydo.

Xudo bu qissani derkim yagona,

Uning vasfini aylay jovidona[ A.Jomiy; 6b]

Shoir o‘z ishqiy-irfoniy dostonidaadolat va haqsizlik, qanoat va besabrlik, hayo va fahsh, xurramlik va g‘amxonalik kabi abadiy va azaliy ziddiyatda bo‘lgan inson hislari, fazilatlari va qusurlarini keng maydonga olib chiqadi. Insondagi ham ezgu, ham yomon xususiyatlarning o‘zaro kurashlari, ularning oqibatlari tasvirlangan bu kabi asarlar kishini o‘z-o‘zini isloh qilishga undaydi.

Qur'on g'oyalarini, Qur'onyiy mavzularni bilmay turib, mumtoz adabiyotni chinakam anglash mumkin emas. Bu masalani o'rganishda faqat Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Xaziniy kabi tasavvuf adabiyoti vakillari ijodi bilangina cheklanmasdan, har bir mumtoz adabiyot vakili ijodini o'rganish zarur.[6:5]

O'zbekiston musulmonlar idorasining nodir manbalar fondida Jomiy dostonining toshbosma nusxasi n-118-й raqam ostida saqlanadi. Kitob 1918-yilda Pokistonda(fors tilida) bosilgan bo'lib, 256 varaqdan iborat.

Jomiy "Yusuf va Zulayho"sining syujeti Qur'oni Karimdag'i "Yusuf"surasi (12-sura, 111oyatdan iborat) dagi syujetga juda yaqinligi bilan ajralib turadi. Dostonning yana bir o'ziga xos jihat, unda ishqning barcha ko'rinishlari o'z aksini topgan. To'qima obraz bo'lishiga qaramay Zulayho ta'rifi, tush ko'rishi, hissiy kechinmalari katta o'rinni egallagan. Shunday qilib, Jomiy "Yusuf va Zulayho" she'riy dostoni yaralishi uchun Kalomulloh asos bo'lgan bo'lsa, asrlar osha yashab kelayotgan bu durdona ko'plab kitobxon va ilm ahli uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

## **ОСОБЫЕ АСПЕКТЫ ПОЭМЫ ДЖАМИ "ЮСУФ И ЗУЛАИХА"**

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье проводится анализ художественно-смысловые фрагменты эпоса Джами «Юсуф и Зулайх» на узбекском языке (Олимжон Бориев), было кратко разъяснялось, что литературы, воспитания, религии и науки неразрывно связаны между собой и что важно изучать и преподавать классические произведения, отражающие воплощение этих элементов, являющихся корнями личностного развития.

**Ключевые слова:** Абдуррахман Джами, поэма «Юсуф и Зулайхи», Коранические аяты, художественное и духовное искусство в

поэзии, божественная любовь, суфизм, цитирование, классические произведения.

## **SPECIAL ASPECTS OF JAMI'S POEM "YUSUF AND ZULAIKHA"**

**ANNOTATION.** This article analyzes the artistic and semantic fragments of the epic Jami "Yusuf and Zulaikho" in the Uzbek language (Olimjon Boriev), it was briefly explained that literature, education, religion and science are inextricably linked and that it is important to study and teach classical works that reflect the embodiment of these elements, which are the roots of personal development.

**Key words:** Abdurrahman Djami, poem “Yusuf and Zuleiha”, Quranic verse, artistic-spiritual art and poetry, divine love, sufism, citation, classical works.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI**

1. Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайхо.(Достон). Форсийдан Олимжон Бурийев таржимаси. - Тошкент: Yangi nashr, 2012 – B.217
2. Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Огахий таржимаси. – Т.: Г.Гулом номидаги адабиет ва санъат нашриети.1974 –Б.240
3. Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрый шеър: Филол.фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореф. – Тошкент, 1995. – Б. 24.
4. Aliyev F. Sharq mumtoz adabiyoti va Navoiy ijodida Qur'on oyatlarining o'rni// “Yosh Navoiyshunoslar” ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plamii II. T.:TDSHU.2021- 63-68b

## **ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ**

5. Almardonova A. Navoiy g‘azallarida mifologik obrazlar//“Yosh Navoiyshunoslar” ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to’plami II.

Т.:TDSHU.2021- В 68-72b

6. Жалилов Б. Диний-маърифий мавзуларнинг бадиий адабиётдаги талқини. – Тошкент. 2010 – Б.108

7. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Тошкент. 1993 - Б.281

8. Кароматов Ҳ. Қуръон ва Ўзбек адабиёти.— Тошкент.:ФАН, 1993-й

9. Mansurova D. “Yusuf va Zulayho” dostonida an’ana va o‘ziga xoslik. Bitiruv malakaviy ishi. Samarqand – 2006 – В.62

10. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. — Тошкент. Ўқитувчи.1965 – Б.748

11. Обидов Р. Қуръон мавзуларининг маънавий-тарихий ахамияти. (Монография) – Т.: Тошкент ислом университети. 2006 – Б. 347

القرآن الكريم

13. Рустамий С. Балогат илмида лингвистик назариялар ват ил ходисаларининг еритилиши. – Т.: Навruz.2017 – Б.170

14. Ражабова Б. Ўзбек классик шеъриятида тамсил санъати: Филол.фанлари номзоди дис.автореферати. – Тошкент, 1996. – Б. 23

15. Хомидий Ҳ. Кухна шарқ даргалари. Бадиий- илмий лавхалар. – Т.: Шарқ 2004 – Б.349

16. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадият малоҳати. —Т.: Шарқ.1999 240

17. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. — Т.: Тошкент ислом университети.2016 – Б.618

18. Шомуҳамедов Ш. Абдураҳмон Жомий (ҳаёти ва ижоди). — Тошкент.1963-й.